

MAMLAKATIMIZDA FUQAROLAR HUQUQ VA ERKINLIK LARI KAFOLATLARINI YANADA KUCHAYTIRISH

*Xorazm viloyat yuridik texnikumi o'quvchisi
Salimova Shahnozaxon Hayrulla qizi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada inson huquqlarini yanada ta'sirchan himoya qilish va tergov amaliyotida turli ta'ziqlar va qiynoqlarni bartaraf etish masalasiga qaratilgan.

Kalit so'zlar: fuqaro, huquq, erkinlik, kafolatlar, qiynoq.

So'nggi yillarda mamlakatimizda fuqarolar huquq va erkinliklari kafolatlarini yanada kuchaytirish, jumladan qiynoqqa solish va boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsituvchi muomala hamda jazo turlarini qo'llash holatlariga mutlaqo yo'l qo'ymaslik maqsadida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

“Huquqni muhofaza qiluvchi organlarning jinoyatlarni fosh etish borasidagi faoliyati yangi bosqichga olib chiqiladi, shaxsga nisbatan qiynoqqa solish va boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsituvchi muomala hamda jazo turlarini qo'llash bilan bog'liq qilmishlar sodir etilishining oldini olish bo'yicha samarali mexanizmlar joriy qilinadi hamda bunday qilmishlar uchun javobgarlik kuchaytiriladi. Bundan tashqari, jinoyat ishlarini tergov qilish jarayoniga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari keng joriy etiladi, surishtiruv va dastlabki tergov organlarining moddiy-texnika bazasini yanada mustahkamlash va kadrlar salohiyatini oshirish davom ettiriladi”, deb yoziladi “www.kitaichina.com” saytidagi maqolada. Mamlakatimizda huquq-tartibot idoralari xodimlarining xatti-harakatlarini tartibga soluvchi qonunlar mavjud va qiynoqlarga qarshi kurash, shu jumladan: «Ichki ishlar vazirligi xodimlari qiynoq, zo'ravonlik va boshqa shafqatsiz yoki qadr-qimmatni kamsituvchi usullardan foydalanishlari mumkin emas. Ichki ishlar vazirligi xodimi fuqarolarga og'riq, jismoniy yoki ma'naviy azob beradigan qasddan qilingan harakatlarning oldini olishga majburdir”. Qonunda qiynoq natijasida olingan dalillardan sud jarayonida foydalanish taqiqlangan. Bundan tashqari, qiynoqqa qarshi qonun va boshqa g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsituvchi muomaladan foydalanish javobgarligini o'z ichiga oladi.

Ushbu qonunni qabul qilinishidan oldin, qiynoqlarga aloqador shaxslarni javobgarlikka tortishda rasmiy to'siqlar mavjud edi. Ushbu cheklovlar olib tashlandi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha Vakili (Ombudsman) o'zining faoliyatini quyidagi vazifalarni bajarishga yo'naltiradi:

Birinchiidan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 29 dekabrda Oliy Majlisiga yo'llagan Murojaatnomasida qayd etilgan vazifalarni amalga oshirishda, shuningdek inson huquqlarini ta'minlash sohasidagi xalqaro standartlar va insonparvarlik tamoyilini keng joriy etish maqsadida har chorak yakuni bo'yicha qiynoqlarning oldini olish, shu jumladan tergov izolyatori va jazoni o'tash muassasalariga “monitoring tashriflari” haqida Parlament palatalariga ma'lumot kiritib borishi lozim. Ombudsman tomonidan qamoqda saqlanayotgan shaxslarning huquqlari va erkinliklarini ta'minlash ustidan parlament nazoratini kuchaytirish bo'yicha aniq maqsadga qaratilgan ishlar olib borilmoqda. Noqonuniy xatti-harakatlar ustidan

berilgan shikoyatlarni ko'rib chiqish yakunlari haqida parlament palatalarini vaqti-vaqti bilan ogohlantirib borish mexanizmi joriy etildi, qiynoqqa solish va boshqa - shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsituvchi muomala va jazo turlariga yo'l qo'ymaslik bo'yicha nazorat-tahliliy tadbirlari tashkil etish va olib borishning qo'shma jadvali tasdiqlandi.

O'zbekiston Prezidenti 2020 yil 29 dekabrda Oliy Majlisga taqdim etgan Murojaatnomasida inson huquq va erkinliklarini kafolatli himoya qilish, qonun ustuvorligini ta'minlashga qaratilgan islohotlar izchil davom ettirilishini ta'kidlar ekan, tezkor-qidiruv, tergov va jazoni ijro etish sohasida qiynoqlarning oldini olish tizimini tubdan takomillashtirish zarurligiga e'tiborni qaratgandi. Nega deganda, afsuski, mazkur sohada qiynoqqa solish holatlari hali ham uchrab turibdi.

Davlat rahbari, avvalambor, Oliy Majlis palatalari va Inson huquqlari bo'yicha milliy markaz zimmasiga qiynoqlarning oldini olish bo'yicha Ombudsman vakolatlarini kengaytirish, shuningdek jamoatchilik nazoratini kuchaytirish yuzasidan o'z takliflarini ishlab chiqish vazifalarini yukladi. Bunda Ombudsman tomonidan har chorakda jamoatchilik vakillari bilan birgalikda tergov izolyatori va jazoni o'tash muassasalariga «monitoring tashriflari» tizimi yo'lga qo'yilishi zarurligiga e'tibor qaratildi.

Shuningdek, Oliy Majlis palatalari har yili Ombudsmanning qiynoqlarning oldini olish bo'yicha ma'ruzasini eshitib, bu illatga butunlay barham berish bo'yicha zarur chora-tadbirlarni belgilashi ko'rsatib o'tildi.

Bu muhim vazifalar izchillik bilan amalga oshirilmoqda. Xususan, 2020 yilda Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman) jamoatchilik faollari bilan birgalikda karantin majmualari, tibbiy muassasalar, jazoni ijro etish muassasalarida inson huquqlarining ta'minlanishi holatini o'rganish maqsadida 76 ta monitoring tadbirini amalga oshirgan. Bu tadbirlarda Inson huquqlari bo'yicha milliy markaz mutaxassislari ham muntazam ishtirok etib kelmoqda.

Eng asosiysi, so'nggi yillarda mamlakatimizda fuqarolar huquq va erkinliklari kafolatlarini yanada kuchaytirish, jumladan qiynoqqa solish va boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsituvchi muomala hamda jazo turlarini qo'llash holatlariga mutlaqo yo'l qo'ymaslik maqsadida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Shu bilan birga, islohotlarning amaldagi bosqichi qiynoqqa solishning barvaqt oldini olish, u bilan bog'liq murojaatlarni tezkor ravishda xolisona ko'rib chiqish, harakatlanish erkinligi cheklangan shaxslar saqlanadigan joylarga monitoring tashriflarini muntazam amalga oshirish bo'yicha samarali huquqiy mexanizmlarni yaratish ishlarini davom ettirish masalasini kun tartibiga qo'ydi.

Mazkur dolzarb masala Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy strategiyasida o'z aksini topdi. Mamlakatimizda izchil amalga oshirilayotgan "Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili" Davlat dasturida ham bu borada aniq vazifalar nazarda tutildi. Qayd etilganidek, ushbu qonun O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qonunchilik tashabbusi tartibida Oliy Majlisga ko'rib chiqish uchun kiritildi. Qonun ilg'or xorij tajribasini hisobga olgan holda, sud-tergov faoliyatida fuqarolarning huquqlarini himoya qilishning qonunchilik asoslarini yanada takomillashtirishga qaratilgan hamda Jinoyat, Jinoyat-protsessual

kodekslariga va “Prokuratura to‘g‘risida”gi Qonunga o‘zgartish hamda qo‘shimchalar kiritilishini nazarda tutadi.

Qonun normalarida dalillarni qalbakilashtirganlik (soxtalashtirganlik) uchun jinoiy javobgarlik o‘rnatilmoqda, yolg‘on guvohlik va yolg‘on xabar berganlik uchun javobgarlik kuchaytirilmoqda. Qonunga xilof usullar orqali yoki jinoyat protsessi ishtirokchilarini qonun bilan kafolatlangan huquqlaridan mahrum qilish yoki bu huquqlarni cheklash yo‘li bilan olingan faktik ma‘lumotlardan dalil-isbotlar sifatida foydalanishni taqiqlovchi tegishli norma kiritilmoqda. Shuningdek, sudlarda jinoyat ishlarining oshkora ko‘rilishi prinsipini cheklaydigan qo‘shimcha talablarni joriy etish taqiqlanmoqda, qiynoqqa solish va boshqa shafqatsiz, g‘ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsituvchi muomala turlarini qo‘llaganlik uchun javobgarlik kuchaytirilmoqda.

O‘zbekiston Prezidenti 2021-yil 26-iyun kuni “Qiynoqqa solish holatlarini aniqlash va ularning oldini olish tizimini takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorni imzoladi.

Prezidentimizning qarori aynan butun dunyoda, jumladan, O‘zbekistonda ham 26 iyun` – Qiynoq qurbonlarini qo‘llab-quvvatlash xalqaro kuni nishonlanayotgan muhim sanada qabul qilingani bejiz emas. – Bu voqelik O‘zbekiston inson huquqlari sohasida shiddatli va aniq tizimli islohotlarni amalga oshirish asnosida mazkur yo‘nalishdagi sinovdan o‘tgan xalqaro tajriba hamda dunyo andozalariga har tomonlama uyg‘unlashishga qat‘iyat bilan intilayotganining yana bir yaqqol dalolatidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. М.Н. Rustambayev O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat huquqiy kursi. Tom 1. - T,: O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Harbiy-texnika instituti, 2018.
2. П.С. Дагель, Д. П. Котов Субъективная сторона преступления и ее установление. Издательство Воронежского университета Воронеж-1974.
3. Х.Р.Очиллов, Ш.Д.Хайдаров, З.З.Шамсидиновлар Жинойт хукуқи (умумий қисм) ўқув қўлланма Т.:2021.